# II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 35 916,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 98,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (97,2 %) ni tashkil etdi.




B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash,

C - Ishlab chiqaradigan sanoat,

D - Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash,

E - Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da**




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 2,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 8,1 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 1,5 % ga va elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 7,8 % o'sishi kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % *da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 307,0 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*






## Ishlab chiqaradigan sanoat







2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 34 921,7 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 97,7 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % *da*







### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2021- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 163 524 dona yengil avtomobil ishlab chiqarilib (2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 25,5 % ga kamaygan), 53,3 ming tonna neft (59,0 %) yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi va 883,2 tonna murakkab organik erituvchilar va suyultirgichlar (72,5 %), 114 785,2 tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (10,9 %), 34 620,0 ming. litr 80 % dan etil spirti (8,6 %), 1 248,0 tonna uzum vinosi (22,4 %) kamayishi kuzatildi.

## O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, *% da*




### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2020- yil yanvar - dekabr | farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yengil avtomobillar,** *dona* | 163 524,0 | 219 365 | -55 841 |
| **Paxtadan yigirilgan ip,** *tonna* | 98 451,0 | 111 011,0 | -12 560,0 |
| **Aroq,** *ming litr* | 1 719,0 | 2 190,0 | -471,0 |
| **Yumshoq bug‘doy va spelta uni,** *ming t.* | 114 785,2 | 128 896,5 | -14 111,3 |
| **Kard yoki taroqda taralmagan paxta tolasi,** *tonna* | 77 181,1 | 121 941,0 | -44 759,9 |
| **O‘simlik yog‘i (tozalanmagan),** *t.* | 22 611,0 | 21 126,0 | 1 485,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirganda yengil avtomobillar 25,5 % ga kamaydi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 71 082 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 89,0 %), 31 466 dona “Nexia T-250” (47,4 %), 51 061 dona “Lacetti-Gentra” (102,0 %), 9 915 dona “Spark” (43,1 %) avtomobillari ishlab chiqarildi.

### Andijon viloyatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati

*(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida, dona)*




### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*(2020- yilning yanvar-dekabr oylarida)*



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 565,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (1,6 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,8 % ga o‘sish kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, %** *da*
*(yanvar-dekabr oylarida)*







**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2020- yil yanvar-dekabr | farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln. kvt/s* | **1 466,0** | **762,3** | **703,7** |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | **143,8** | **205,8** | **-62,0** |
| **Elektr energiyasini uzatish bo‘yicha xizmatlar,** mlrd. so‘m. | **980,0** | **969,0** | **11,0** |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 488,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

*yil boshidan, % da*







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2020- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta’minlash bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd. so‘m* | **198,5** | **114,1** | **84,4** |
| **Oqava suvlarni shlami,** *mlrd. so‘m* | **41,8** | **23,4** | **18,4** |
| **To‘qimachilik chiqindilari,** *tonna* | **50,1** | **60,9** | **-10,8** |

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 25 311,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2020- yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga kamaygan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 70,0 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,1 % (2020- yil yanvar-dekabr oylarida 0,1 %)ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Asaka tumanida to‘g‘ri kelib, 66,9 % ni, shuningdek, Andijon shahriga 7,0 % ni, Xo‘jaobod tumani 4,0 % ni, Shahrixon tumanida 2,5 % ni hamda Oltinko‘l tumani 2,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat (7,4 %) ga kamaygan. Shunga qaramasdan yuqori darajada o‘sish ko‘rsatkichi Izboskan (119,6 %), Paxtaobod (134,5 %), Baliqchi (150,8 %), Bo‘ston (100,2 %), Shahrixon (109,6 %), tumanlarida hamda Andijon shahrida (108,4 %) qayd etildi.

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 6 218,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 17,3 % ni tashkil etdi.

## Andijon viloyati hududlari bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2021- yilning yanvar-dekabr oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Andijon viloyati | 25 311,1 | 100,0 | 92,6 |
| Andijon shahar | 1 764,7 | 7,0 | 108,4 |
| Xonobod shahar | 302,0 | 1,4 | 122,5 |
| Andijon | 743,7 | 2,9 | 110,4 |
| Asaka | 16 927,1 | 66,9 | 74,6 |
| Baliqchi | 519,6 | 2,1 | 150,8 |
| Buloqboshi | 294,7 | 1,2 | 100,3 |
| Bo‘ston | 187,7 | 0,7 | 100,2 |
| Jalaquduq | 456,8 | 1,8 | 100,3 |
| Izboskan | 524,8 | 2,1 | 119,6 |
| Ulug‘nor | 165,2 | 0,7 | 101,2 |
| Marhamat | 348,2 | 1,4 | 135,3 |
| Oltinko‘l | 602,3 | 2,4 | 133,6 |
| Paxtaobod | 387,2 | 1,5 | 134,5 |
| Xo‘jaobod | 1 008,5 | 4,0 | 108,2 |
| Shahrixon | 633,9 | 2,5 | 109,6 |
| Qo‘rg‘ontepa | 444,6 | 1,8 | 110,7 |

# Andijon viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2021- yilning yanvar-dekabr oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| **Andijon viloyati** | 35 916,2 | 100,0 | 98,6 |
| **Andijon shahar** | 5 889,0 | 16,4 | 95,8 |
| **Xonobod shahar** | 1 915,8 | 5,3 | 108,5 |
| **Andijon** | 987,1 | 2,7 | 96,0 |
| **Asaka** | 17 549,2 | 48,9 | 82,4 |
| **Baliqchi** | 1 303,3 | 3,6 | 142,3 |
| **Buloqboshi** | 349,2 | 1,0 | 101,0 |
| **Bo‘ston** | 297,9 | 0,8 | 96,1 |
| **Jalaquduq** | 922,4 | 2,6 | 115,0 |
| **Izboskan** | 986,9 | 2,7 | 121,6 |
| **Ulug‘nor** | 413,4 | 1,2 | 124,6 |
| **Marhamat** | 533,0 | 1,5 | 109,1 |
| **Oltinko‘l** | 725,5 | 2,0 | 95,4 |
| **Paxtaobod** | 592,5 | 1,6 | 107,1 |
| **Xo‘jaobod** | 1 130,3 | 3,1 | 112,7 |
| **Shahrixon** | 1 059,5 | 2,9 | 122,8 |
| **Qo‘rg‘ontepa** | 1 261,0 | 3,5 | 112,8 |

## Andijon viloyati hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, % *da*




Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Qo'rg'ontepa (2020- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 112,9 %), Jalaquduq (115,0 %), Izboskan (121,6 %), Paxtaobod (107,1 %) va Baliqchi (142,3 %), Buloqboshi (101,0 %) Ulug'nor (124,6 %), tumanlarida sezilarli darajada oshdi.

**Andijon viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, %** *da*

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Asaka tumanida (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 48,9 % ni) hamda Andijon shahri (16,4 %), Xonobod shahri (5,3 %), Baliqchi (3,6 %), Qo‘rg‘ontepa (3,5 %) va Xo‘jaobod (3,1 %) shahar va tumanlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Buloqboshi (1,0 %), Bo‘ston (0,8 %) hamda Ulug‘nor (1,2 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.






Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Asaka tumani (52 229,7 ming so‘m), Xonobod shahri (43 442,9 ming so‘m) va Andijon shahrida (12 967,1 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (11 150,3 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 7 857,9 ming so‘m bo‘lgan holda, Asaka tumanida 50 378,3 ming so‘mni, Xo‘jaobod tumanida 8 924,7 ming so‘mni, Andijon shahrida 3 886,9 ming so‘mni, Xonobod shahrida 6 848,9 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, ming so‘m)*

**Andijon viloyati**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 11 150,3 | 7 857,9 |

**Andijon sh.**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 12 967,1 | 3 886,9 |

**Xonobod sh.**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 43 442,9 | 6 848,9 |

**Andijon**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 3 643,3 | 2 754,5 |

**Asaka**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 52 229,7 | 50 378,3 |

**Baliqchi**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 6 357,7 | 2 534,8 |

**Buloqboshi**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 2 392,4 | 2 018,6 |

**Bo‘ston**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 4 025,1 | 2 536,8 |

**Jalaquduq**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 4 854,7 | 2 404,3 |

**Izboskan**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 4 061,4 | 2 159,6 |

**Ulug‘nor**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 6 777,8 | 2 707,4 |

**Marhamat**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 3 011,4 | 1 967,3 |

**Oltinko‘l**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 4 007,4 | 3 291,3 |

**Paxtaobod**

| Sanoat mahsulotlari | Истеъмол маҳсулотлари |
|---|---|
| 2 992,6 | 1 955,5 |

**Xo‘jaobod**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 9 950,4 | 8 924,7 |

**Shahrixon**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 3 440,6 | 2 064,9 |

**Qo‘rg‘ontepa**

| Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|
| 5 743,7 | 2 021,1 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*(2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9 739,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 27,1 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Shahrixon (79,1 %), Jalaquduq (70,2 %), Izboskan (37,8 %) hamda Andijon (81,6 %) tumanlarida kuzatildi.






Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Asaka tumani (3,3 %), Xonobod shahar (43,0 %) va Andijon shahrida (30,9 %) sanoat ishlab chiqarish hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda viloyatda 9 344 dona sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 3 005 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 32,1 %) Andijon shahriga, 990 tasi (10,5 %) Asaka tumaniga, 672 tasi (7,1 %) Andijon tumaniga, 705 tasi (7,5 %) Shahrixon tumaniga, 525 tasi (5,6 %) Xo‘jaobod tumaniga, 457 tasi (4,8 %) Oltinko‘l tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda 2 029 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 308 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar hajmidagi ulushi 15,1 %) Andijon shahrida, 165 tasi (8,1 %) Asaka tumanida, 177 tasi (8,7 %) Shahrixon tumanida, 145 tasi (7,1 %) Xo‘jaobod tumanida, 224 tasi (11,0 %) Andijon tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*(2021- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligida Asaka (1 017 ta), Andijon (951 ta), Shahrixon (751 ta), Xo‘jaobod (546 ta), Oltinko‘l (496 ta), Qo‘rg‘ontepa (423 ta) va Izboskan tumanlarida (403 ta) hamda Andijon shahrida (3 087 ta) qayd etildi.







2022- yilning 1- yanvar holatiga ko‘ra viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar 8 taligiga esa Jalaquduq (377 ta), Baliqchi (430 ta), Buloqboshi (318 ta), Marhamat (361 ta), Paxtaobod (296 ta), Bo‘ston (242 ta) va Ulug‘nor tumanlarida (136 ta) hamda Xonobod shahrida (222 ta) faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar qayd etildi.